

I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT


Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yil uchun Farg'ona viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda –YAHM) hajmi joriy narxlarda 55 972,1 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021- yil bilan taqqoslaganda 4,6 %ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2021- yil narxlariga nisbatan 112,0 %ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Farg'ona viloyatining qo'shgan hissasi 6,3 %ga yetdi

Yalpi hududiy mahsulot


(2022- yil yanvar-dekabr holatiga, % taqqoslama narxda)

Ko'rsatkichlar	mlrd.so'm		2021- yil nisbatan, % hisobida
	2021- yil	2022- yil	
Yalpi hududiy mahsulot, jami	47 760,5	55 972,1	104,6
shu jumladan:			
 Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	46 082,7	54 217,7	104,5
 Mahsulotlarga sof soliqlar	1 677,8	1 754,4	107,7
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	46 082,7	54 217,7	104,5
 Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	16 129,7	19 032,9	103,6
Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	12 567,4	14 232,4	106,6
 sanoat	9 558,7	10 565,9	104,8
 qurilish	3 008,7	3 666,5	112,7
 Xizmatlar	17 385,6	20 952,4	103,8
 savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	3 465,5	4 085,9	104,6
 tashish va saqlash, axborot va aloqa xizmatlari	2 738,7	3 117,3	107,9
 boshqa xizmatlari	11 181,4	13 749,2	102,5

Yalpi hududiy mahsulot (YAHM) – milliy hisoblar tizimining asosiy ko‘rsatkichi bo‘lib, muayyan davrda mintaqaning iqtisodiy hududida joylashgan rezident – institutsional birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalaydi. YAHM ishlab chiqarish usulida, iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yalpi qo‘shilgan qiymat hajmi va mahsulotlarga sof soliqlar yig‘indisi orqali hisoblanadi.

Hudud iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida kuzatilgan o‘shish sur‘atlari YAHM o‘shishida asosiy omil bo‘lib xizmat qildi. Jumladan, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarmog‘ining o‘shish sur‘ati- 103,6%, (YAHM tarkibidagi ulushi- 35,1%), sanoat- 104,8% (19,5 %), qurilish 112,7% (6,8%), savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar- 104,6 % (7,5 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa- 107,9 % (5,7 %) va xizmat ko‘rsatuvchi boshqa tarmoqlar- 102,5 % (25,4 %)ni tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-dekabr oylarida YAHM ning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha o‘shish sur‘atlari




Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 96,9 %ni, mahsulotlarga sof soliqlar esa 3,1 %ni tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi 35,1 %ni, sanoat tarmog‘i 19,5 %ni, qurilish 6,8 %ni va xizmatlar sohasi 38,6 %ni tashkil qildi.


Xizmatlar sohasining YAHM tarkibidagi ulushi 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida 38,6 %ni tashkil etdi va 2021- yil (37,8 %) bilan taqqoslanganda 0,8% punktga ko‘paydi.

Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar bo‘yicha tarkibi
(yanvar–dekabr holatiga, jamiga nisbatan foizda)



Savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarning YAHM tarkibidagi ulushi 7,5 %ni (2021- yil- 7,5 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa – 5,7 %ni (5,9 %), xizmat ko‘rsatuvchi boshqa tarmoqlar – 25,4%ni (24,4 %) tashkil etdi.


Xizmatlar sohasining yalpi qo‘shilgan qiymati tarkibi
(yanvar-dekabr, jamiga nisbatan, foizda)



Joriy yilning yanvar-dekabr oylari davomida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra yalpi hududiy mahsulot aholi jon boshiga 14 219,1 ming so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning (12 379,0 ming so'm) mos davriga nisbatan 2,5 %ga o'sdi. Shu bilan birga viloyatda yirik korxonalar iqtisodiy faoliyati jadallashi oqibatida YAHMda kichik biznes ulushi 68,9 %ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining pasayishi dinamikasi yanvar-dekabr holatiga, %


2022- yilning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi 69,8 % (2021- yilning yanvar-dekabr oylarida 68,9 %)ni tashkil qildi.



Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog'liq.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMni shakllantirishda Farg'ona viloyatining qo'shgan hissasi 6,3 %ni tashkil etdi.

YAIM da Farg'ona viloyatining ulushi, foizda



Yalpi ichki (hududiy) mahsulot

yanvar–dekabr holatiga

Hududlar	YAHM mlrd. so‘m			Aholi jon boshiga, ming so‘m		
	2021- yil	2022 - yil	%	2021- yil	2022- yil	%
O‘zbekiston Respublikasi	738 425,2	888 341,7	105,7	21 149,2	24 919,7	103,5
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	25 681,8	29 925,4	104,0	13 264,7	15 249,4	102,6
Andijon	43 332,5	54 464,0	108,6	13 454,0	16 564,0	106,4
Buxoro	38 350,1	45 797,3	104,4	19 546,4	22 975,6	102,8
Jizzax	23 274,3	27 140,8	104,7	16 309,9	18 596,0	102,4
Qashqadaryo	42 560,2	49 520,8	105,6	12 622,0	14 372,6	103,4
Navoiy	58 730,3	66 685,4	105,5	57 370,6	63 832,1	103,4
Namangan	34 194,1	41 098,2	106,6	11 794,3	13 864,4	104,3
Samarqand	52 893,6	62 440,3	105,8	13 258,2	15 323,2	103,6
Surxondaryo	29 693,2	34 858,5	104,0	10 948,8	12 561,6	101,6
Sirdaryo	15 071,5	18 136,8	105,0	17 327,5	20 433,5	102,9
Toshkent v.	82 221,8	93 433,1	105,1	28 206,4	31 499,2	103,3
Farg‘ona	47 760,5	55 972,1	104,6	12 379,0	14 219,1	102,5
Xorazm	26 464,3	31 963,1	105,7	13 865,1	16 465,7	103,9
Toshkent sh.	121 779,8	147 414,6	107,9	43 166,0	50 675,3	104,6